

**NUTQ MADANIYATI VA NUTQ TEXNIKASI**

Akmalova Mohina Bahodir qizi

Namangan viloyati Kosonsoy tumani 3-son texnikumi

Ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutq madaniyati va nutq texnikasining nazariy hamda amaliy asoslari keng yoritilgan. Nutq madaniyatining adabiy til me'yorlari bilan uzviy bog'liqligi, uning asosiy mezonlari, nutq etikasi, og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, nutq texnikasining tarkibiy elementlari ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada nutqni rivojlantirish omillari, zamonaviy axborot-kommunikatsiya muhitida nutq madaniyatining ahamiyati hamda shaxsning kasbiy faoliyatida nutqiy kompetensiyaning o'rni yoritilib, samarali muloqotni shakllantirishga xizmat qiluvchi tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: nutq, madaniyat, texnika, til, me'yor, kommunikatsiya, etika, notiqlik, diksiya, intonatsiya, artikulyatsiya, talaffuz, uslub, muloqot.

Til jamiyat taraqqiyoti va insonlar o'rtasidagi muloqotni ta'minlovchi eng muhim vositalardan biridir. Tilning amaliy ko'rinishi bo'lgan nutq esa shaxsning bilim darajasi, tafakkuri va ma'naviy madaniyatini namoyon etadi. Shu sababli fikrni adabiy til me'yorlariga muvofiq, aniq, ravon va ta'sirchan ifodalash bugungi kunda har bir inson uchun zarur ko'nikmalardan biri hisoblanadi. Nutq madaniyati va nutq texnikasi samarali muloqotning asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular insonning ta'lim jarayoni, kasbiy faoliyati va ijtimoiy munosabatlarida muhim o'rin tutadi. Nutq madaniyati fikrning mazmunan to'g'ri va mantiqiy ifodalanishini ta'minlasa, nutq texnikasi uni talaffuz, diksiya, intonatsiya va ovoz vositasida tinglovchiga samarali yetkazishga xizmat qiladi.

Nutq madaniyati tilshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, adabiy til me'yorlariga asoslangan holda fikrni to'g'ri, aniq, ravon, mantiqiy va ta'sirchan ifodalash qonuniyatlarini o'rganadi. Nutq madaniyatining asosiy maqsadi shaxsning kommunikativ salohiyatini rivojlantirish, muloqot samaradorligini oshirish hamda jamiyatda til me'yorlarining izchil qo'llanilishini ta'minlashdan iboratdir. Insonning bilim darajasi, ma'naviy dunyosi va kasbiy malakasi ko'pincha uning nutqi orqali baholanadi. Shu sababli nutq madaniyati faqat filologik tushuncha emas, balki har bir kasb egasi uchun zarur bo'lgan umummadaniy kompetensiya hisoblanadi. Ayniqsa, ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan pedagoglar, ilmiy xodimlar, jurnalistlar, huquqshunoslar, shifokorlar va davlat xizmatchilarining nutqi jamiyat uchun namuna vazifasini bajaradi. Ularning nutqidagi aniqlik, mantiqiylik va ifodalilik tinglovchilar tafakkuriga, dunyoqarashiga hamda axborotni qabul qilish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.



Nutq madaniyati bir necha muhim mezonlarga asoslanadi. Birinchi navbatda, nutq adabiy til me'yorlariga to'liq mos kelishi lozim. Bunda fonetik, leksik, grammatik, uslubiy va orfografik me'yorlarga qat'iy rioya etish talab qilinadi. Ikkinchi muhim mezon — aniqlikdir. Nutqda qo'llanilayotgan har bir so'z o'z ma'nosiga mos holda ishlatilishi, ortiqcha yoki noaniq ifodalar fikr mazmunini buzmasligi kerak. Uchinchi mezon mantiqiy izchillik bo'lib, fikrlar ketma-ketligi sabab va oqibat munosabatlariga asoslanishi, matnning har bir qismi o'zaro uzviy bog'langan bo'lishi zarur. Shuningdek, nutqning sofligi ham alohida ahamiyatga ega. Til imkoniyatlari yetarli bo'lgan hollarda ortiqcha chet tillariga oid birliklarni noo'rin qo'llash, shevaga xos yoki jargon so'zlardan foydalanish nutq madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqning boyligi esa so'z zaxirasining kengligi, sinonimlar, iboralar, maqol va matallardan o'rinli foydalanish orqali namoyon bo'ladi. Ta'sirchanlik esa tinglovchi yoki o'quvchining his-tuyg'ulariga, tafakkuriga va xulq-atvoriga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan ifoda vositalaridan oqilona foydalanish bilan belgilanadi.

Nutq madaniyatining poydevorini adabiy til me'yorlari tashkil etadi. Adabiy til — umumxalq tilining sayqallangan, me'yorlashtirilgan va jamiyat tomonidan tan olingan shaklidir. U davlat boshqaruvi, ta'lim, ilm-fan, ommaviy axborot vositalari hamda rasmiy hujjatlar tilining asosini tashkil qiladi. Adabiy til me'yorlariga amal qilinishi muloqot jarayonida fikrning to'g'ri tushunilishiga, axborotning buzilmasdan yetib borishiga hamda tilning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi. Nutq madaniyati aynan shu me'yorlarni amaliyotda to'g'ri qo'llashni taqozo etadi.

Fonetik me'yorlar tovushlarning to'g'ri talaffuz qilinishini belgilaydi. Noto'g'ri talaffuz ko'pincha so'z ma'nosining o'zgarishiga yoki tinglovchida noqulay taassurot uyg'otishiga sabab bo'ladi. Leksik me'yorlar esa so'zlarni o'z ma'nosiga mos ravishda qo'llashni talab etadi. Ayrim hollarda sinonimlarning uslubiy farqlari e'tiborga olinmasa, nutqning aniqligi va tabiiyligi buziladi. Grammatik me'yorlar gap qurilishi, so'zlarning o'zaro bog'lanishi, kelishik va zamon shakllarining to'g'ri qo'llanishini nazarda tutadi. Uslubiy me'yorlar esa nutqning vaziyat, mavzu va tinglovchi xususiyatlariga mos bo'lishini ta'minlaydi. Masalan, ilmiy maqolada badiiy tasvir vositalaridan haddan tashqari foydalanish yoki rasmiy nutqda so'zlashuv uslubiga oid birliklarni qo'llash uslubiy me'yorlarning buzilishiga olib keladi. Demak, nutq madaniyatining yuksak darajada shakllanishi adabiy til me'yorlarini chuqur bilish va ularga izchil amal qilish bilan chambarchas bog'liqdir.

Nutq texnikasi nutqning tashqi ifoda vositalarini mukammallashtirishga qaratilgan amaliy ko'nikmalar tizimi hisoblanadi. Mazmunan boy va ilmiy asoslangan fikr ham noto'g'ri talaffuz, sust ovoz, noaniq diksiya yoki bir maromdagi ohang sababli tinglovchiga yetarli ta'sir ko'rsatmasligi mumkin. Shu bois nutq texnikasi har qanday notiq, pedagog yoki jamoatchilik oldida so'zlovchi shaxsning





kasbiy mahoratini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nutq texnikasi nafaqat tabiiy qobiliyatga, balki muntazam mashq va izchil tayyorgarlikka ham tayanadi.

Nutq texnikasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri nafasni to'g'ri boshqarishdir. Nutq davomida nafasning me'yorida taqsimlanishi gaplarning ravon aytilishini, fikrning uzilmasdan ifodalanishini ta'minlaydi. Diafragmal nafas olish usuli uzoq vaqt davomida bemalol so'zlash imkonini beradi. Ikkinchi muhim element ovozdur. Ovozning kuchi, tembri, balandligi va jarangdorligi tinglovchi e'tiborini jalb etishda muhim rol o'ynaydi. Juda past yoki haddan tashqari baland ovoz muloqot samaradorligini pasaytiradi. Diksiya esa tovush va so'zlarning aniq talaffuz qilinishini anglatadi. Har bir tovush ravshan eshitisli, so'zlar bir-biriga qo'shib ketmasligi lozim. Bunda maxsus artikulyatsion mashqlar, tez aytishlar va ovoz mashqlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq texnikasining yana bir muhim elementi intonatsiyadir. Intonatsiya orqali fikrning mazmuni, hissiy bo'yodkorligi va muallifning munosabati ifodalanadi. Pauzalar esa fikrni mantiqiy qismlarga ajratish, tinglovchiga axborotni anglash uchun imkon yaratish vazifasini bajaradi. Nutq sur'ati ham vaziyatga mos bo'lishi zarur. Juda tez nutq axborotning qabul qilinishini qiyinlashtirsa, haddan tashqari sekin nutq tinglovchining e'tiborini susaytiradi. Shuningdek, urg'uni to'g'ri qo'llash muhim ma'no farqlarini ifodalashga xizmat qiladi. Ushbu elementlarning uyg'unligi notiqning nutqini tabiiy, ta'sirchan va esda qolarli qiladi.

Nutq madaniyati insonda o'z-o'zidan shakllanmaydi. U uzoq davom etadigan ta'lim-tarbiya jarayoni, mustaqil mutolaa, amaliy mashg'ulotlar va muntazam muloqot natijasida rivojlanadi. Avvalo, badiiy, ilmiy va publitsistik adabiyotlarni muntazam o'qish insonning lug'at boyligini kengaytiradi, uslubiy sezgirligini oshiradi hamda fikrni ifodalash imkoniyatlarini boyitadi. Kitob mutolaasi davomida shaxs turli uslub va janrlarning xususiyatlarini o'zlashtirib boradi. Bu esa keyinchalik uning og'zaki va yozma nutqida yaqqol namoyon bo'ladi.

Ta'lim muassasalarida olib boriladigan nutq o'stirish mashg'ulotlari, bahs-munozaralar, taqdimotlar, ilmiy konferensiyalar va ijodiy yozuv ishlari ham nutq madaniyatini rivojlantirishning samarali vositalaridan hisoblanadi. O'quvchilarni mustaqil fikr bildirishga, o'z qarashlarini asoslashga, dalillar bilan isbotlashga o'rgatish ularning kommunikativ kompetensiyasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Shu bilan birga, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlarda adabiy til me'yorlariga amal qilinishi ham bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir. Raqamli muloqotda qisqartmalar, imlo xatolari va noo'rin chet so'zlarning ko'payishi yoshlar nutqiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun har bir foydalanuvchi virtual muloqotda ham nutq madaniyati talablariga rioya etishi zarur.

Nutq madaniyatini rivojlantirishda oila muhiti ham muhim o'rin egallaydi. Farzandning dastlabki nutqiy odatlari oilada shakllanadi. Ota-onalarning adabiy tilda





so'zlashishi, kitobxonlikka e'tibor berishi, bolalar bilan mazmunli suhbatlar olib borishi ularning nutqiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Demak, nutq madaniyati ta'lim muassasasi, oila va jamiyatning uzviy hamkorligi asosida shakllanadigan murakkab va uzluksiz jarayondir.

Nutq madaniyatining ajralmas tarkibiy qismlaridan biri nutq etikasi hisoblanadi. Nutq etikasi muloqot jarayonida insonlarning bir-biriga nisbatan hurmat, xushmuomalalik va o'dob-axloq me'yorlariga amal qilgan holda fikr almashishini ta'minlaydigan qoidalar majmuasidir. Har qanday jamiyatda muloqotning samarali bo'lishi nafaqat fikrning mazmuniga, balki uning qanday shaklda bayon etilishiga ham bog'liq. Bir xil mazmundagi fikr muloyim, o'dobli va madaniyatli tarzda ifodalansa, u tinglovchi tomonidan ijobiy qabul qilinadi. Aksincha, qo'pol, keskin yoki mensimaslik ohangida aytilgan fikr mazmudan to'g'ri bo'lsa ham salbiy taassurot uyg'otishi mumkin. Shu sababli nutq madaniyatida muomala o'dobi, murojaat shakllari, salomlashish, minnatdorchilik bildirish, uzr so'rash, iltimos qilish va xayrlashish kabi kommunikativ birliklardan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy jamiyatda turli yosh, kasb va ijtimoiy mavqega ega insonlar bilan muloqot qilish zarurati ortib bormoqda. Har bir muloqot vaziyati o'ziga xos nutqiy yondashuvni talab qiladi. Masalan, ilmiy konferensiyada qo'llaniladigan nutq uslubi bilan maktab darsidagi yoki kundalik suhbatdagi nutq uslubi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Shuningdek, rasmiy yig'ilishlarda murojaat shakllarining to'g'ri tanlanishi, xizmat yozishmalarida diplomatik uslubning saqlanishi, jamoat oldidagi chiqishlarda esa tinglovchilar psixologiyasini hisobga olish muloqot samaradorligini oshiradi. Nutq etikasi insonning umumiy madaniyati, ma'naviy saviyasi va kasbiy kompetensiyasini namoyon qiladigan muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi.

Nutq madaniyati og'zaki va yozma nutq shakllarida namoyon bo'ladi. Ularning har biri o'ziga xos lingvistik va uslubiy xususiyatlarga ega bo'lib, turli kommunikativ vazifalarni bajaradi. Og'zaki nutq bevosita muloqot jarayonida yuzaga keladi va suhbatdosh bilan jonli aloqani ta'minlaydi. Ushbu nutq shaklida intonatsiya, mimika, imo-ishoralar, pauzalar va ovoz tembri muhim ahamiyat kasb etadi. Tinglovchining reaksiyasiga qarab fikrni to'ldirish, izohlash yoki qisqartirish imkoniyati mavjudligi og'zaki nutqning asosiy afzalliklaridan biridir. Shu bilan birga, og'zaki nutqda fikrni tez va aniq shakllantirish, keraksiz takrorlardan qochish hamda talaffuz me'yorlariga amal qilish yuqori darajadagi nutqiy tayyorgarlikni talab etadi. Yozma nutq esa puxta o'ylangan, mantiqiy jihatdan izchil va grammatik jihatdan mukammal bo'lishi bilan ajralib turadi. Muallif yozma matnni qayta ko'rib chiqish, tahrirlash va takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lgani sababli unda fikrlarning izchilligi va aniqligiga alohida e'tibor qaratiladi. Yozma nutqda tinish belgilari, imlo qoidalari, matn kompozitsiyasi va uslubiy yaxlitlik muhim o'rin





tutadi. Ilmiy maqolalar, darsliklar, rasmiy hujjatlar, monografiyalar va badiiy asarlar yozma nutqning turli ko‘rinishlarini tashkil etadi. Bugungi axborotlashgan jamiyatda elektron yozishmalar, internet nashrlari va ijtimoiy tarmoqlardagi matnlar ham yozma nutqning muhim shakllariga aylangan. Shu bois yozma nutq madaniyatini rivojlantirish zamonaviy kommunikatsiyaning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Har bir xalqning ma'naviy merosi, urf-odatlar va dunyoqarashi, avvalo, uning tilida aks etadi. O‘zbek tilining boy lug‘at tarkibi, maqol va matallari, hikmatli so‘zlari, iboralar hamda tasviriy ifoda vositalari nutqning mazmunan boy va ta'sirchan bo‘lishiga xizmat qiladi. Nutq madaniyatiga ega bo‘lgan shaxs ushbu til boyliklaridan o‘rinli foydalanib, fikrni yanada obrazli va ishonarli tarzda ifodalashga erishadi. Ayniqsa, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan foydalanish nutqning milliy ruhini kuchaytiradi, tinglovchida estetik zavq uyg‘otadi va fikrning ta'sirchanligini oshiradi. Shu bilan birga, tilning boy imkoniyatlaridan foydalanish ortiqcha dabdababozlik yoki sun'iy murakkab jumalarni qo‘llashni anglatmaydi. Nutqning haqiqiy boyligi fikrning sodda, ravon va tushunarli ifodalanishi bilan belgilanadi. Bir xil ma'noni ifodalovchi sinonim birliklardan vaziyatga mosini tanlash, terminlarni me'yorida qo‘llash, iboralar va frazeologizmlardan maqsadga muvofiq foydalanish nutq sifatini sezilarli darajada oshiradi. Milliy tilning boy imkoniyatlarini chuqur o‘zlashtirgan shaxs o‘z fikrini turli uslub va kommunikativ vaziyatlarga mos ravishda erkin ifodalay oladi.

Raqamli texnologiyalarning keng rivojlanishi insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Elektron pochta, messenjerlar, videokonferensiyalar, bloglar va ijtimoiy tarmoqlar bugungi kunda axborot almashinuvining asosiy vositalaridan biriga aylandi. Bunday sharoitda nutq madaniyati faqat an'anaviy og‘zaki va yozma nutq bilangina cheklanmay, balki raqamli kommunikatsiya madaniyatini ham o‘z ichiga oladi. Elektron muloqotda fikrni qisqa, aniq va tushunarli ifodalash, imlo qoidalariga amal qilish, etik me'yorlarni saqlash hamda axborotning ishonchliligini tekshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Internet muhitida noto‘g‘ri yozilgan matnlar, asossiz ma'lumotlar, haqoratli izohlar yoki adabiy til me'yorlariga zid ifodalar keng auditoriyaga tez tarqalishi mumkin. Bu esa nafaqat shaxsning obro‘sig, balki umumiy nutq madaniyatiga ham salbiy ta'sir ko‘rsatadi. Shu sababli zamonaviy foydalanuvchi media savodxonlik bilan bir qatorda nutq madaniyatiga ham ega bo‘lishi zarur. Ayniqsa, o‘qituvchilar, olimlar, jurnalistlar va davlat xizmatchilarining internetdagi chiqishlari ham adabiy til me'yorlariga mos bo‘lishi, ular jamiyat uchun ijobiy nutqiy namuna yaratishi muhim hisoblanadi.

Nutq madaniyati bugungi mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassisni shakllantiruvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Kasbiy faoliyatning deyarli barcha yo‘nalishlarida insonning bilim va tajribasi uning nutqi orqali namoyon bo‘ladi. Ish suhbatlari, muzokaralar, taqdimotlar, ma'ruzalar, xizmat yozishmalari va





jamo'a bilan ishlash jarayonida fikrni ravon hamda asosli bayon eta olish mutaxassisning muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omildir. Nutqi rivojlangan mutaxassis o'z g'oyalarini ishonchli himoya qila oladi, jamoani boshqarishda samarali muloqot o'rnatadi va nizoli vaziyatlarni konstruktiv yo'l bilan hal etishga erishadi. Ayniqsa, pedagog kasbida nutq madaniyati ta'lim sifatini belgilovchi asosiy omillardan biridir. O'qituvchining ravon, tushunarli va ta'sirchan nutqi o'quvchilarning bilimni o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shuningdek, huquqshunoslar sud jarayonlarida, shifokorlar bemorlar bilan muloqotda, jurnalistlar ommaviy axborot vositalarida, rahbarlar esa boshqaruv faoliyatida yuksak nutq madaniyatiga ega bo'lishlari zarur. Demak, nutq madaniyati shaxsning nafaqat ma'naviy kamoloti, balki uning kasbiy rivojlanishi, ijtimoiy faolligi va jamiyatdagi nufuzini belgilovchi eng muhim omillardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, nutq madaniyati va nutq texnikasi insonning fikrini aniq, ravon va ta'sirchan ifodalashini ta'minlaydigan muhim omillardir. Adabiy til me'yorlariga amal qilish, to'g'ri talaffuz, boy so'z boyligidan o'rinli foydalanish hamda muloqot madaniyatiga rioya etish samarali kommunikatsiyaning asosini tashkil etadi. Bugungi kunda nutq madaniyatini rivojlantirish ta'lim sifati, kasbiy faoliyat va ijtimoiy munosabatlarning samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir inson nutqiy ko'nikmalarini muntazam takomillashtirib borishi, adabiy til me'yorlariga amal qilishi va nutq texnikasini rivojlantirishga e'tibor qaratishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mahmudov N. O'qituvchi nutqi madaniyati. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 192 b.
2. Mahmudov N. Til. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 240 b.
3. Qo'ng'urov R., Begmatov E., Tojiyev Y. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 160 b.
4. Begmatov E. Hozirgi o'zbek adabiy tilining leksik qatlamlari. – Toshkent: Fan, 1985. – 184 b.
5. Mirtojyev M. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: O'zbekiston, 2004. – 312 b.
6. Hojiyev A. O'zbek tili imlo lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. – 592 b.
7. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2002. – 164 b.
8. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Talqin, 2005. – 368 b.
9. Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G. va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2010. – 416 b.
10. Mengliyev B. Hozirgi o'zbek tili. – Toshkent: Tafakkur bo'stoni, 2018. – 400 b.

